

MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK – MATONAT, IJOD VA FIDOIYLIK
TIMSOLI

Xusanboyeva Shaxzodaxon Foziljon qizi

TTYSI iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot va Menejment kafedrası 2-bosqich talabasi.

Mob: +998-95-888-35-06 Pochta: shahzoda0306oo@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18654998>

Annotatsiya. Maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning hayoti va ijodiy faoliyati, u ta'lim olgan o'quv dargohlari hamda bu jarayonda uchragan sinov va qiyinchiliklar yoritiladi.

Shuningdek, adibning adabiyotga kirib kelishi, hayotidagi muhim burilishlar, mehnat faoliyati va urush yillarida ko'rsatgan jasorati haqida so'z boradi. Undan tashqari, yozuvchining real hayot voqealariga tayangan asarlari hamda og'ir xastalik davrida Zarifa opa g'amxo'rligi bilan yaratilgan ijod namunalari haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Govkush, Yozuvchilar Uyushmasi, Gulshan.

Аннотация. В статье освещаются жизненный путь и творческая деятельность Айбека, учебные заведения, где он получал образование, а также трудности, с которыми он столкнулся в процессе обучения. Раскрываются его приход в литературу, важные события личной жизни, трудовая деятельность и мужество, проявленное им в годы войны. Кроме того, приводятся сведения о произведениях писателя, основанных на реалистических и жизненных событиях, а также о работах, созданных в период тяжелой болезни при поддержке и заботе Зарифы.

Ключевые слова: Говкуш, Союз писателей, Гульшан.

Annotation. The article describes the life and creative activity of Aibek, the educational institutions where he studied, and the challenges he faced during his studies. It highlights his entry into literature, significant moments of his personal life, his professional work, and the courage he demonstrated during the war years. The paper also provides information about the writer's works based on realistic life events, as well as the pieces created during his severe illness with the care and support of Zarifa.

Keywords: Govkush, Writers' Union, Gulshan.

O'zbek adabiyotining zabardast namoyandasi, so'z mulkining fidoyi sohibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek — matonat va ma'rifat timsoli sifatida xalq qalbidan chuqur joy olgan ulug' adibdir. Uning hayoti ham, ijodi ham mashaqqatlar va izlanishlar ichida kamol topib, yuksak insoniy fazilatlar bilan boyigan.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zining serqirra ijodi, mustahkam irodasi va xalqparvarligi bilan milliy madaniyatimiz tarixida muhim o'rin egallaydi. Uning hayot yo'li mashaqqat, izlanish va yuksak maqsadlarga intilish bilan uyg'unlashgan bo'lib, adibning shaxsiyati ham, ijodi ham yosh avlod uchun ibrat maktabidir.

Oybek nafaqat iste'dodli yozuvchi, balki o'z xalqining dardini his etgan, uning orzu-intilishlarini asarlarida aks ettirgan buyuk siymodir.

Adib 1905-yil 10-yanvar kuni qishning izg'irin chillasida Toshkent shahrida, bo'zchi hunarmand oilasida dunyoga keldi.

U eski va yangi shaharni tutashtirib turuvchi Shayxontohur ko'chasining Xadra yaqinidagi hududda, bugungi Hamza teatri joylashgan maskan atrofida, teatr bilan qadimiy dorixona oraliq'idan yuqoriga ko'tariladigan yo'l bo'yidagi Govkush mahallasida tug'ilgan. Mahallaning tor, egri va sokin ko'chalaridan birida joylashgan oddiygina xonadon kelajakda o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkorning ilk beshigi bo'ldi.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yoshligidan ilmga tashna, zukko va izlanishga moyil bo'lgan. U avval o'rta maktabda tahsil olib, bilim asoslarini puxta egalladi, 1922–1925-yillarda esa Toshkent ta'lim va tarbiya texnikumida o'qib, dunyoqarashini yanada kengaytirdi.

Keyinchalik O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida ta'lim olib, ilmiy va nazariy bilimlarini mustahkamladi. 1930-yilda o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagach, oliy o'quv yurtlarida siyosiy iqtisod fanidan dars bera boshladi.

Ta'lim yo'lida uchragan turli qiyinchilik va sinovlar uning irodasini chiniqtirib, maqsad sari intilishini yanada kuchaytirdi. Ana shu matonat, tinimsiz izlanish va bilimga bo'lgan muhabbat natijasida Oybek adabiyot maydoniga kirib keldi hamda qisqa fursatda iste'dodli shoir va mohir yozuvchi sifatida tanildi. Uning ijodi xalq hayoti, inson qadr-qimmat, vatanparvarlik va ma'naviy poklik g'oyalari bilan sug'orilib, o'zbek adabiyotida alohida o'rin egalladi. Adibning hayotida urush yillari alohida o'rin tutadi. Bu davrda Oybek nafaqat ijod bilan, balki xalq ruhini ko'tarish, insonlarni sabr va jasoratga chorlash bilan ham faol ishtirok etdi. Uning asarlarida hayot haqiqati, realizm va chuqur insoniy kechinmalar yorqin aks etadi. Oybek o'z qahramonlari orqali insonning ruhiy kuchi, adolat va ezgulik yo'lida kurashini tasvirlab berdi.

Hayot sinovlari adibni chetlab o'tmadi. Og'ir xastalik yillarida ham Oybek ijoddan to'xtamadi. Bu davrda unga yaqin insonlar, xususan, Zarifa opa g'amxo'rliqi va mehribonchiligi katta dalda bo'ldi. Adibning ana shu og'ir damlarda yaratgan asarlari uning metindek irodasi, ijodga sadoqati va ruhiy kuchini yana bir bor namoyon etdi.

Oybekning boy adabiy merosi o'zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. U nafaqat iste'dodli yozuvchi, balki yuksak insoniy fazilatlar sohibi, fidoyi ma'rifatparvar sifatida ham xalq qalbidan joy oldi. Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib kelgan. Shoirning "Dilbar - davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indik" (1933), "Temirchi Jo'ra" (1933) dostonlari o'z davrining eng go'zal she'riy solnomalaridir. Oybek tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratgan. Oybek she'riyati nihoyatda go'zal bo'lib, o'zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviri vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, "Quyosh qushig'i" she'rida:

O'zbek halqining 1916-yilgi milliy ozodlik qo'zg'oloni yozuvchining "Qutlug' qon" (1940) romanida zo'r mahorat bilan realistik ifodalangan bo'lsa, "Navoiy" (1944) romanida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi.

Uning "Oltin vodiya shabadalar" (1949) asarida xalqimizning urushdan so'ngi davr yaratuvchilik mehnati, "Quyosh qoraymas" (1958) romanida ikkinchi jahon urushi fojialari o'z ifodasini topgan. Adibning "Ulug' yo'l" (1977) asari esa "Qutlug' qon" romanining mantiqiy davomi bo'lib, unda yozuvchi halq milliy ongining shakllanishini mohirona tasvirlab bergan.

Uning hayoti va ijodi bugungi kunda ham yoshlarni ilmga, vatanparvarlikka, sabr-toqat va ezgulikka chorlab kelmoqda.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov Oybek xarakterini ochib berishda, asosan, qiyosiy yoʻldan ketdi. U Oybek va Gʻafur Gʻulom shaxsiyatlarini qiyosan tahlil qilib Muso xarakterini quyidagicha izohlaydi: “Oybek bilan bir davrda, hatto, yonma-yon mahallada Gʻafur Gʻulom ham yashagan. Ammo, nega mumtoz oʻzbek adabiyotini yaxshi bilgan Gʻafur Gʻulom emas, balki Birinchi jahon urushi arafasidagi oʻzbek xalqi hayoti xususida roman yozgan Oybek Alisher Navoiy haqida nafaqat yirik roman, balki ikkita doston, bir necha sheʼrlar va hatto “Navoiy gulshani” ilmiy maqolalar kitobini yaratgan? Nega bolaligidan shoʻx va quvnoq boʻlgan Oybek emas, balki Gʻafur Gʻulom “Shum bola” qissasini yozgan?... Buning sababi Navoiyning Oybek ruhiy olamiga, Shum bolaning esa Gʻafur Gʻulom tabiatidagi “afandilik”ka yaqinligidir.

Aytmoqchimizki, nafaqat muallif qahramonni, balki qahramon ham yozuvchini tanlaydi.”

“Shoirni uch muhim fazilat ajratib turadi”,- deydi olim Naim Karimov. “Bular – bilim va dunyoqarashning kengligi, tuygʻu va fikrning oʻzaro munosabatida fikrning ustuvorligi, shuningdek, liro-epik tasvirga moyillik...”

Haqiqatdan ham, xuddi shu xususiyatlar Oybekning nasr gulshaniga dadil kirib kelishiga asos boʻlgan. Oybek faqat yozuvchi boʻlibgina qolmasdan, uning teran sheʼriyati ham oʻzbek adabiyotida alohida oʻringa ega. Adib sheʼriyati tahliliga bagʻishlangan bir qancha maqola va toʻplamlar mavjud.

Oybek- oʻtkir nigohli ijodkor hisoblanadi. Balki shuning uchundir, u ijod davomida rangsiz boʻyoqlar va siyqasi chiqqan soʻzlardan foydalanmaydi. Misradagi har bitta kalom oʻzgacha ohangda namoyon boʻladi. Oybek insoniyatga hayotni sevishni, uning pokizaligi va tinchligi yoʻlida kurashishni oʻrgatadi.

Xulosa qilib aytganda, Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybekning hayoti va ijodi oʻzbek adabiyoti tarixida alohida oʻrin tutadi. Adibning mashaqqatlarga boy hayot yoʻli, ilmga chanqoqligi, metin irodasi va ijodga sadoqati uning shaxsiy kamolotini belgilab berdi. U yaratgan asarlar xalq hayoti, inson qadr-qimmati, vatanparvarlik va ezgulik gʻoyalari bilan sugʻorilgan boʻlib, bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Oybek nafaqat buyuk yozuvchi, balki yuksak insoniy fazilatlar sohibi sifatida ham milliy maʼnaviyatimiz rivojiga beqiyos hissa qoʻshdi.

Uning boy adabiy merosi yosh avlodni ilmga, tafakkurga, sabr-toqat va fidoyilikka chorlovchi bebaho maʼnaviy xazinadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov, “Oybek va Zarifa”, 2005.
2. Naim Karimov “Oybek gulshanidan shabadalar” Toshkent “Maʼnaviyat” 2015.
3. <https://oz.sputniknews.uz/20231020/oybek-biografiya-40171629.html>